



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 7-fevral

58-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevralda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 29-son qarori ijrosi haqida”gi 54-6-0-Q/25-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasini Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son hamda “Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta‘minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-avgustdagi PF-111-son Farmonlari ijrosini ta‘minlash, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish orqali sifatini yaxshilash hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ilmiy asoslanganlik darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 22-yanvardagi 29-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevraldagi 54-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 5-fevraldagi 54-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi 29-son qarori bilan:

Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida” 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmonida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manfaatdor shaxslar takliflarini o‘rganish mexanizmlarini joriy qilish belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solishning barqarorligini ta‘minlash, sifati va samaradorligini oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 16-avgustdagi PF-111-son Farmonida:

davlat organlari tomonidan qonun loyihalari bo‘yicha ushbu sohadagi davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari xulosalari olinishi;

davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari xulosalari va muhokama natijalari bo‘yicha materiallar loyihani Adliya vazirligi hamda hujjatni qabul qiluvchi organlarga kiritishda ilova qilinishi belgilanganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

belgilanishicha:

a) normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari:

qonun loyihalari bo‘yicha — tegishli sohadagi davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari tomonidan beg‘araz asosda;

qonunosti hujjatlari loyihalari bo‘yicha — tegishli sohadagi davlat ekspertlik ilmiy-tadqiqot muassasalari, davlat ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda davlat oliy ta‘lim muassasalari tomonidan kelishuv asosida ilmiy ekspertizadan o‘tkaziladi;

b) normativ-huquqiy hujjat loyihasini ilmiy ekspertizadan o'tkazish natijalari bo'yicha xulosa tavsiyaviy xususiyatga ega bo'lib, xulosa loyihani ishlab chiquvchi tashkilot tomonidan ko'rib chiqiladi;

d) loyihani ishlab chiquvchi tashkilot ilmiy ekspertiza xulosasida ko'rsatilgan taklif, e'tiroz va fikr-mulohazalar yoki ularning bir qismini inobatga olmagan taqdirda, ular yuzasidan tegishli tushuntirishlar berilgan holda kelishmovchiliklar jadvalini tayyorlashi;

shunday tartib o'rnatilganki, unga muvofiq:

Adliya vazirligi tomonidan Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimida normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazuvchi tegishli sohadagi davlat ekspertlik ilmiy- tadqiqot muassasalari, davlat ilmiy-tadqiqot muassasalari hamda davlat oliy ta'lim muassasalarining elektron reyestri yuritilishi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ilmiy ekspertizasi natijalari bo'yicha xulosa Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va kelishishning yagona elektron tizimi orqali taqdim etilishi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda manfaatdor shaxslar takliflarini o'rganish mexanizmlarini joriy qilish maqsadida respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari bir oy muddatda:

ishlab chiqilayotgan yoki ishlab chiqilishi rejalashtirilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari to'g'risidagi ma'lumotlarni, loyiha bo'yicha takliflarni yuborish manzili, muddatlarini, olingan takliflar yuzasidan to'ldirilgan jadvalni o'zlarining rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borishi (davlat sirlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sir bilan bog'liq bo'lgan, shuningdek, xizmat doirasida foydalanish uchun grifiga ega loyihalar bundan mustasno);

zarur hollarda, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini manfaatdor tomonlarni taklif etgan holda, ular ishtirokida muhokama qilish hamda ularning taklif va tavsiyalarini ko'rib chiqish amaliyotini joriy etishi;

bunda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini Adliya vazirligiga huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun kiritishda loyiha ishlab chiquvchilarining rasmiy veb- saytlarida rasmiy e'lon qilinganligi, manfaatdor tomonlar ishtirokida muhokama qilinganligi to'g'risidagi ma'lumotlar hamda olingan takliflar yuzasidan tegishli tahliliy jadvallar taqdim qilinishi;

normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Adliya bo'limi (A.Qodirov) manfaatdor idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 22-yanvardagi 29-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya- iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov